

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)  
**Каланова Сабохат Мурадovна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. профессор (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин</b> РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
<b>2. Karimov Bobir</b> JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
<b>3. Mamatov Normurat</b> IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
<b>4. Rasulov Abdimumin</b> SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
<b>5. Xusanova Hayriniso</b> IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
<b>6. Abduxalilov Abdullo</b> NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
<b>8. Abdullayev Akmal</b> O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
<b>9. Хасанова Мавлюда</b> СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
<b>10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
<b>11. Алимухамедова Нодира</b> ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
<b>12. Tolipov Abdug‘affor</b> VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
<b>13. Berdimuratov Marat</b> YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

<b>14. Хамиджонов Умиджон</b>	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
<b>15. Ixtiyarov Farxod</b>	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
<b>16. Хасанова Мавлюда</b>	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
<b>17. Radjabova Aziza</b>	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
<b>18. Kalanova Sabohat</b>	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
<b>19. Ixomjon Xudayarov</b>	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
<b>20. Tagaymuratova Gulchehra</b>	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
<b>21. Jabborov Jaxongir</b>	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
<b>22. Ixtiyarov Farxod</b>	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
<b>23. Xasanov Sharofidin</b>	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
<b>24. Nurulloev Shahriyor</b>	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
<b>25. Аликариев Нуриддин</b>	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
<b>26. Alikariyeva A'loxon</b>	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


**Tolipov Abdug'affor,**

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası boshlig'i,

sotsiologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O'SIB BORISHIGA TA'SIR QILUVCHI IJTIMOY OMILLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099435>

#### ANNOTATSIYA

Ijtimoiy institutsional muhitning fragmentarlashuvi, ya'ni maktab, mahalla, oila va ichki ishlar organlari o'rtasidagi tizimli axborot almashinuvi va ijtimoiy monitoringning yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sotsiologik dinamikasini belgilovchi markaziy omillardan biridir. Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning ortib borishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda oilaviy muhitdagi muammolar, ta'lim muassasalaridagi profilaktik ishlarning yetarli darajada emasligi, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik kabi omillar kompleks o'rganilgan. Muallif statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rovlar va ilmiy manbalar asosida mazkur omillarning o'zaro bog'liqligi va dinamikasiga baho beradi. Maqola voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini kamaytirish uchun profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiya qilish va oila institutini mustahkamlash zaruratini asoslab beradi.

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, ijtimoiy omillar, oilaviy muhit, profilaktika, ta'lim tizimi, deviant xulq, anomiya.

**Толипов Абдугаффор,**

заведующий кафедрой «Общественно-гуманитарные науки»

Университета общественной безопасности Республики Узбекистан,

доктор философии (PhD) по социологии, доцент

### СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РОСТ ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

#### АННОТАЦИЯ

Фрагментация социально-институциональной среды, то есть отсутствие систематического обмена информацией и социального контроля между школой, районом проживания, семьей и органами внутренней безопасности, является одним из центральных факторов, определяющих социологическую динамику подростковой преступности. В данной статье проанализированы основные факторы, влияющие на рост правонарушений среди несовершеннолетних. В исследовании комплексно изучены такие факторы, как проблемы семейной среды, недостаточная эффективность профилактической работы в образовательных учреждениях, социально-экономическое неравенство. Автор на основе статистических данных, социологических опросов и научных источников оценивает взаимосвязь и динамику

этих факторов. Статья обосновывает необходимость усиления профилактических мер, модернизации системы образования и воспитания, а также укрепления института семьи для снижения правонарушений среди несовершеннолетних.

**Ключевые слова:** несовершеннолетние, правонарушение, социальные факторы, семейная среда, профилактика, система образования, девиантное поведение, аномия.

**Tolipov Abdugaffor,**

Head of the Department of Social and Humanitarian Sciences,  
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology, Associate Professor

## SOCIAL FACTORS INFLUENCING THE RISE OF JUVENILE DELINQUENCY

### ABSTRACT

The fragmentation of the socio-institutional environment, that is, the lack of systematic exchange of information and social control between the school, district of residence, family and internal security agencies, is one of the central factors that determine the sociological dynamics of juvenile delinquency. This article analyzes the main factors influencing the increase in juvenile delinquency. The research comprehensively examines factors such as problems within the family environment, the insufficient effectiveness of preventive measures in educational institutions, and socio-economic inequality. Based on statistical data, sociological surveys, and scientific sources, the author evaluates the interrelation and dynamics of these factors. The article substantiates the need to strengthen preventive measures, modernize the education and upbringing system, and reinforce the institution of the family in order to reduce juvenile delinquency.

**Keywords:** juveniles, delinquency, social factors, family environment, prevention, education system, deviant behavior, anomie.

### KIRISH

O‘zbekiston jamiyatida kechayotgan strukturaviy va sotsiomadaniy transformatsiyalar sharoitida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning o‘zib borishiga olib kelayotgan ijtimoiy omillar murakkab tizimli xususiyat kasb etmoqda. Bunday jarayonlarning ildizi, bir tomondan, ijtimoiy institutlarning normativ-institutiv funksiyasidagi zaiflashuv bilan, boshqa tomondan esa, turmush tarzi sotsiologiyasi kontekstida shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy aloqalarning parokandaligi bilan izohlanadi. Aytish joizki, O‘zbekiston ijtimoiy tuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlari – ya’ni ijtimoiy qatlamlararo harakatchanlikning cheklanganligi, iqtisodiy resurslarga noadolatli taqsimot, maktab va mahalla tizimlarining lokal qamrovda ishlashi – voyaga yetmagan shaxsning ijtimoiy muhitdagi pozitsiyasini bevosita shakllantiradi va deviantlik ehtimolini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy institutsional muhitning fragmentarlashuvi, ya’ni maktab, mahalla, oila va ichki ishlar organlari o‘rtasidagi tizimli axborot almashinuvi va ijtimoiy monitoringning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sotsiologik dinamikasini belgilovchi markaziy omillardan biridir.

### METODOLOGIYA

Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning o‘zib borishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy omillarni tadqiq etishda analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

F.Ganiyev va S.O‘zoqboyevning fikricha, ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi natijasida, yoshlar orasida normativ noaniqlik (anomiya) holati paydo bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, Mertonning anomiya nazariyasida keltirilganidek, shaxsning jamiyat tomonidan qabul qilingan maqsadlarga erishish yo‘lida ruxsat etilgan vositalarni rad etib, alternativ, jumladan, g‘ayriqonuniy vositalarga murojaat qilishiga olib keladi. Ayniqsa, kambag‘allik, ijtimoiy chetlatilganlik va ijtimoiy adolatsizlik tuyg‘usi

kuchaygan makonlarda bunday xatti-harakatlar legimatsiyalashtirilgan ijtimoiy model sifatida qabul qilinishi mumkin [1].

M.O'ralovning ta'kidlashicha, maktab instituti bu borada fundamental rol o'ynashi mumkin bo'lgan, ammo hozirda funksional yuki bilan real ta'sir darajasi orasida ziddiyat kuzatilayotgan tizimdir. O'ralova maktablarning profilaktik salohiyatini faqat pedagogik me'yorlar doirasida tushunish, psixosotsial muammolarni chetlab o'tish bilan tanqid qilgan. Unga ko'ra, maktablar huquqbuzarlikka moyil bolalarni erta identifikatsiya qilish, ijtimoiy himoya xizmatlari bilan bog'lanish, va individual psixologik profilaktika olib borishda sustkashlik qilmoqda [2]. Bizning nazarimizda ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi zamonaviy jamiyatda eng dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lib, uning eng ko'zga ko'ringan oqibatlaridan biri yoshlar orasida normativ noaniqlik, ya'ni anomiya holatining vujudga kelishidir. Bu holatda ijtimoiy tizimning yadro elementlari – qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy institutlar – o'zaro uyg'unlikni yo'qotadi va ijtimoiy muvozanat izdan chiqadi. Anomiya sharoitida shaxs o'zining hayotiy strategiyasini shakllantirishda jamiyat tomonidan belgilangan qonuniy vositalarni samarasiz yoki noadolatli deb hisoblaydi. Natijada, ba'zi yoshlar jamiyat qabul qilgan yo'llarni rad etib, muqobil, ko'pincha g'ayriqonuniy usullarga murojaat qilishga moyil bo'ladi. Bunday tendensiyaning ildizlari ko'proq kambag'allik, ijtimoiy chetlatilganlik va adolatsizlik tuyg'usining chuqurlashgan makonlarida ko'zga tashlanadi. Bu makonlarda g'ayriqonuniy xatti-harakatlar nafaqat normativ deviantlik sifatida, balki ayrim hollarda "muqobil muvaffaqiyat modeli" tarzida ijtimoiy ongda legimatsiyalashtiriladi. Ijtimoiy haqiqatning bu shaklda buzilishi yoshlar ongida jinoyatchilikni ijtimoiy yuksalish vositasi sifatida qabul qilish xavfini tug'diradi.

Sh.Nimatov tomonidan qayd etilganidek, bu institutlar orasida o'zaro aloqadorlik zaifligi, huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina ichki ishlar organlari funksiyasi sifatida ko'rishga olib kelmoqda [3].

G.Zabryanskiy voyaga yetmaganlar orasida deviant va antisotsial xatti-harakatlarning dastlabki belgilarini aniqlash orqali erta aralashuv mexanizmlarini taklif etadi. Bu yondashuv jamiyat tomonidan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlikni oldindan sezish va unga nisbatan ehtiyot choralari ko'rish imkonini beradi. Muallif ijtimoiy-iqtisodiy noqulayliklar, oilaviy beqarorlik, maktabdagi muvaffaqiyatsizlik, yoshlar o'rtasidagi noformal guruhlar bosimi kabi omillarni voyaga yetmaganlar orasidagi jinoyatchilikning asosiy manbai sifatida baholaydi. Bu jihatlar sotsiologik tuzilma va turmush tarzining muhim determinantlari sifatida tahlil qilinadi. Zabryanskiy erta ijtimoiy yordam ko'rsatish, pedagogik va psixologik monitoring, hamda mahalla va oila institutlarining birgalikdagi faolligini jinoyatchilikka qarshi kurashdagi hal qiluvchi omillar sifatida ilgari suradi. Bu yondashuv amaliy kriminologiya bilan birgalikda sotsiologik metodologiyaga asoslanadi [4].

Mazkur asar, ayniqsa, sotsiologik nazariyani jinoyatchilikni oldini olish amaliyoti bilan integratsiyalash nuqtai nazaridan dolzarbdir. Zabryanskiy tomonidan taklif etilgan yondashuvlar zamonaviy sotsiologik analizlarda ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan kuchli nazariy asoslarni beradi.

### **ASOSIY QISM**


Maktab instituti, nazariy jihatdan, ushbu anomik jarayonlarning oldini olishda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida ko'riladi. Uning asosiy funksiyasi – nafaqat ta'lim berish, balki shaxsni sotsializatsiya qilish, ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni singdirishdir. Biroq, real amaliyotda maktablarning bu boradagi samaradorligi va ularning psixosotsial muammolarga munosabati o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. O'ralovning tahlillariga ko'ra, maktablarning profilaktik salohiyati faqat pedagogik mezonlar doirasida baholanishi – bu tizimning real ijtimoiy vazifalaridan chekinishiga olib kelmoqda.

Maktablar ko'p hollarda huquqbuzarlikka moyil bo'lgan bolalarni erta identifikatsiya qilish, ularni ijtimoiy himoya tizimlari bilan bog'lash, hamda individual psixologik yondashuvlar orqali ularni ijtimoiy muvozanatga qaytarish borasida faol harakat qilmayapti. Bu tizimiy sustkashlik natijasida maktablar ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishda zarur bo'lgan ko'p funksiyalardan voz kechgan holga kelmoqda. Ayniqsa, marginal guruhlardan

chiqqan yoshlar uchun bu – ijtimoiy inklyuziya imkoniyatining cheklanishi, o‘z navbatida esa jinoyatchilik riskining ortishidir.

Maktablar ijtimoiy muhit bilan ko‘proq integratsiyalashgan, multidisplinar yondashuvlarga asoslangan va faqat bilim emas, balki ijtimoiy himoya, psixologik yordam va normativ moslashuv mexanizmlarini o‘zida mujassam etgan tizimga aylanishi lozim. Ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi sharoitida maktablar jamiyatdagi normativ noaniqlikni bartaraf etish yo‘lida passiv rol o‘ynasa, bu yoshlar orasida anomiya holatining kuchayishiga zamin yaratadi. Maktab ijtimoiy institut sifatida o‘zining funksional imkoniyatlarini to‘liq ishga solmaguncha, huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat repressiv choralariga tayanib qolaveradi.

Quyidagi diagramma O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning sotsiologik omillarini foizlik ifodada tasvirlaydi. U quyidagi asosiy yo‘nalishlarni aks ettiradi (1-rasm):



**1-rasm. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning sotsiologik omillari**

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar (30%) – Bu guruhga ishsizlik, kambag‘allik, hududlararo tengsizliklar, ijtimoiy stratifikatsiya va yoshlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi kiradi. Ushbu omillar ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradi va voyaga yetmaganlarni jinoyatga yo‘l qo‘yishga moyil qiladi.

Oilaviy muhit va tarbiya (25%) – Oilaviy nizolar, ota-onaning migratsiyasi, nazoratsizlik, zo‘ravonlik, ajrashuvlar va mehr-oqibat yetishmasligi voyaga yetmaganlarning normativ xatti-harakatdan chekinishiga olib keladi.

Ta‘lim tizimi bilan bog‘liq muammolar (15%) – Maktabdagi muvaffaqiyatsizlik, pedagogik befarqlik, maktabda nazoratning sustligi va ta‘limning ijtimoiy moslashuvchanlikdan yiroqligi bu jarayonga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Internet va media ta‘siri (10%) – Virtual makon orqali yetib boradigan zo‘ravonlik, g‘ayriijtimoiy g‘oyalar, ekstremistik kontent, shuningdek, media orqali jinoyatni legitimlashtiruvchi stereotiplar yoshlar ongiga bevosita ta‘sir qiladi.

Mahalliy nazorat va jamoaviy ishtirokning zaifligi (10%) – Mahalla, maktab va jamoaviy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi, profilaktik ishlarning yuzaki bo‘lishi jinoyatchilikka qarshi immunitetning pasayishiga sabab bo‘ladi.

Bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etishdagi muammolar (10%) – Sport, madaniy, intellektual to‘garaklar, yoshlar markazlari va dam olish infratuzilmasining yetishmasligi salbiy ijtimoiylashuvni kuchaytiradi.

Diagrammada ifodalangan omillar bir-biri bilan murakkab o‘zaro aloqada bo‘lib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sotsiologik ildizlarini ko‘rsatadi. Bu omillarni bartaraf etish uchun

tizimli, multidisiplinar va institutlararo integratsiyalashgan profilaktika choralari zarur. Diagramma voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning zamonaviy dinamikasini anglash va samarali choralarni ishlab chiqishda nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oilaning institutsional yetishmovchiligi ham asosiy sotsiogen omillardan biridir. Yagona mehnat qiluvchi ota yoki onaning mavjudligi, ijtimoiy himoyaning pastligi, psixologik befarqlik, va oilaviy zo‘ravonlik holatlari voyaga yetmaganlar ongida normalarni o‘zlashtirishdagi ijtimoiy uzilishga sabab bo‘ladi. Murodova tomonidan ko‘rsatilganidek, oilada ijtimoiy rol va vazifalarning buzilishi, o‘smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonida kompensator mexanizm sifatida jinoyatga murojaat qilish ehtimolini oshiradi [5]. Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi sotsiologiyasi kontekstida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning ortib borishi sotsiologik tahlilni talab qiladigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ushbu muammo nafaqat individual xatti-harakatlar, balki jamiyatdagi strukturaviy nomutanosibliklar, ijtimoiy institutlarning zaiflashuvi va zamonaviy turmush tarzining fragmentatsiyalashuvi bilan ham bog‘liq. Akademik nuqtai nazardan, bu holat ijtimoiy nazariyalar, xususan, funksionalizm, nizoli yondashuvlar hamda interaksionist sotsiologiya orqali chuqur tahlil qilinadi.

Birinchidan, ijtimoiy tuzilmaning beqarorligi, ayniqsa oila institutining zaiflashuvi, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning kuchayishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, buzilgan yoki to‘liq bo‘lmagan oilalarda o‘sayotgan bolalar jinoyatchilikka moyil bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘ladi [6]. Shuningdek, oilaviy daromad darajasi past, nazorat zaif bo‘lgan muhitda ulg‘aygan bolalar jinoyatchilik yo‘liga oson kiradi [7]. Shu jihatdan, funksionalistlar oilani ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida ko‘radi, u buzilganida esa jamiyatda anomiya kuchayadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy institutlar – ayniqsa maktab, jamoatchilik tashkilotlari va diniy muassasalar – voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiylashuvning asosiy manbai hisoblanadi. Bu institutlarning yetarlicha faoliyat yuritmasligi yoki ularga bo‘lgan ishonchning pasayishi, yoshlar orasida ijtimoiy me‘yorlardan chekinishni kuchaytiradi [8]. Ayniqsa maktab tizimining zaifligi, qat’iylik yetishmasligi yoki o‘quv dasturlarining hayotga mos emasligi – yoshlar o‘rtasidagi o‘ziga xos ijtimoiy chekinish holatlarini yaratadi [9].

Uchinchidan, turmush tarzi va madaniy kapitalning kamayishi, ommaviy axborot vositalarining noto‘g‘ri ta’siri ham jinoyatchilikka turtki bo‘luvchi omillardandir. Ijtimoiy media orqali tarqaladigan zo‘ravonlik va noqonuniy xatti-harakatlar yoshlar orasida normal holat sifatida qabul qilinmoqda [10]. Bu esa interaksionist yondashuv asosida "stigmatizatsiya" va "o‘zini oqlovchi bashorat" kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim olimlar individual va psixologik omillarni asosiy sabab deb hisoblashadi. Biroq bu reduksionistik yondashuv sotsiologik murakkablikni inkor etadi. Masalan, Prendi psixososial omillarni ajratib ko‘rsatar ekan, ularni faqat shaxsiy muammolar doirasida ko‘rib chiqadi [11]. Bunday yondashuv ijtimoiy kontekstni e‘tiborsiz qoldirib, muammoni faqat individual javobgarlik darajasiga tushiradi. Tanqidiy yondashuv esa bu muammoni murakkab ijtimoiy tizimning natijasi sifatida ko‘radi. Xususan, strukturaviy tengsizlik, iqtisodiy noaniqlik, siyosiy beqarorlik va jamiyatda ijtimoiy birdamlikning pasayishi – bularning barchasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kuchaytiruvchi omillardir [12]. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi faqat psixologik yoki oilaviy muammolar bilan cheklanmaydi, balki bu hodisa keng ijtimoiy strukturalar, institutlar va turmush tarzining o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu borada har tomonlama kompleks, interdisiplinar va tizimli yondashuv zarur.

Yangi ilmiy adabiyotlar asosida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga olib keluvchi ijtimoiy omillarni ijtimoiy tuzilma, institutlar va turmush tarzi kontekstida yanada chuqurroq tahlil qilish mumkin. Bu yerda tanqidiy akademik yondashuvni davom ettirib, so‘nggi tadqiqotlar asosida tahlilni kengaytiramiz. Yangi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy jinoyatchilik ijtimoiy institutlarning zaiflashuvi va madaniy individualizmning ortishi bilan chambarchas bog‘liq. Koryagina Rossiyada o‘tkazilgan tadqiqotda voyaga yetmaganlar orasida jinoyatlarning kamaygani ko‘rsatilsa-da, rasmiy statistikalar ko‘pincha yashirin jinoyatlarni qamrab olmaydi va jinoyatga qarshi yondashuvlarning liberallashuvi yoshlar o‘rtasida shaxsiy javobgarlikning pasayishiga olib kelayotganini ta’kidlaydi [13].

Ijtimoiy institutlarning, ayniqsa maktab va oila muassasalarining zaiflashuvi yoshlar ijtimoiylashuvida uzilishlarga sabab bo'lmoqda. Damar va Solak (2024) tomonidan Turkiyada olib borilgan fenomenologik tadqiqot shuni ko'rsatdiki, jinoyatga qo'l urgan ayol voyaga yetmaganlar ko'pincha jinoyatga yaqin atrofdagilarning – ayniqsa do'stlar va oilaviy jinoyatchilik tarixiga ega shaxslarning – ta'siri ostida bo'lgan [14].

O'zbekiston jamiyatida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning ortib borishi faqat jinoyat-statistik hodisa emas, balki chuqur ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi ko'rsatkich sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday holatga olib kelayotgan ijtimoiy omillarni sotsiologik nuqtai nazardan o'rganar ekanmiz, bu muammo jamiyatdagi ijtimoiy tuzilishning dezintegratsiyasi, ijtimoiy institutlarning funksional zaiflashuvi va turmush tarzining disfunktsional xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'ramiz.

Birinchidan, ijtimoiy tuzilma doirasida ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik va cheklangan ijtimoiy harakatchanlik voyaga yetmaganlarning psixososial rivojlanishida stressli omil sifatida namoyon bo'ladi. R.Merton tomonidan ishlab chiqilgan anomiya nazariyasiga ko'ra, jamiyatda qonuniy maqsadlarga erishish uchun mavjud vositalarning teng taqsimlanmaganligi deviant xatti-harakatlarga olib keluvchi strukturaviy omildir. O'zbekiston sharoitida bu ayniqsa kambag'al oilalardan chiqqan bolalarda, ijtimoiy liftlarning (ta'lim, mehnat, madaniyat) zaif ishlashi sababli kuchli psixologik va ijtimoiy chetlab qolish holatlarini vujudga keltiradi [1].

Ikkinchidan, ijtimoiy institutlar tizimidagi nomutanosibliklar voyaga yetmaganlar bilan ishlashdagi tizimli yondashuvning yo'qligini anglatadi. Oila, maktab, mahalla, diniy va profilaktika organlari o'rtasida ijtimoiy funksiyalar taqsimoti aniqlanmagan, bu esa bir institutning funksional yetishmovchiligi boshqa institutsional kompensatsiya bilan to'ldirilmasligiga olib kelmoqda. O'ralova maktab institutining faqat formal ta'lim bilan cheklanganligi, ijtimoiy tarbiya va psixologik yordam funksiyalarini bajarmayotganligini tanqid qilgan [2]. Natijada, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan o'quvchilar erta aniqlanmaydi, ularning xavf darajasi bo'yicha profilaktik choralar belgilanmaydi.

Uchinchidan, turmush tarzining sotsiologik o'zgarishlari – ya'ni bo'sh vaqtning samarasiz tashkil etilishi, raqamli texnologiyalar ta'sirida ijtimoiy munosabatlarning virtual xarakterga o'tishi, ommaviy madaniyatning iste'molchilikka asoslangan ideallarini kritik fikrsiz qabul qilish – yoshlar orasida g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni normalashtirishga olib kelmoqda. Murodovning fikricha, zamonaviy o'smirlar o'zining ijtimoiy qadrini konstruktiv faoliyat (o'qish, sport, ijtimoiy xizmat) orqali emas, balki norasmiy guruhlarga mansublik, giperfaollik va ko'pincha tajovuzkorlik orqali tasdiqlashga urinadi [6]. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy nazorat va normalarni zaiflashtiradi.

Tanqidiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, mavjud davlat siyosati ko'proq repressiv (nazorat, jazolash) choralarga tayanadi, biroq ijtimoiy ildizlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan kompleks profilaktika yetarlicha tizimlashtirilmagan. Bu borada Nimatov asosli ravishda profilaktika tizimi davlat institutlari darajasida byurokratik xarakter kasb etayotganini, real ijtimoiy xizmatlar, oilaviy psixologiya va sotsiopedagogik hamkorlikning esa deyarli shakllanmaganini ta'kidlaydi [3].

O'zbekiston ijtimoiy makonida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning ko'payishi o'z mohiyatiga ko'ra, faqat yuridik-huquqiy muammo emas, balki sotsiologik nuqtai nazardan ijtimoiy strukturadagi nomutanosiblik, ijtimoiy institutlarning transformatsiyasi va turmush tarzidagi tizimli muammolar bilan uzviy bog'liqdir. Bu hodisaning shakllanishi, sotsiologiya fanida, jamiyatdagi normativ va institutsional tartibotlarning buzilishi, ijtimoiy integratsiyaning zaiflashuvi va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining ishdan chiqishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, R.Merton tomonidan ishlab chiqilgan anomiya nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy tizim tomonidan maqsadlar taqdim etilib, ularga erishish vositalarining adolatli taqsimlanmasligi voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikka olib keluvchi asosiy ijtimoiy determinant sifatida qaraladi [15].

Ijtimoiy tuzilmaning dinamikasi, ayniqsa, postindustrial transformatsiya bosqichida ijtimoiy qatlamlararo chegaralarning nisbiy bo'lishiga qaramay, iqtisodiy va madaniy kapital taqsimotining adolatsizligi natijasida ijtimoiy past qatlamlarda turgan o'smirlar jamiyatdagi imkoniyatlardan chetlab qolmoqda. Bu esa R. Merton tomonidan ishlab chiqilgan anomiya nazariyasiga mos ravishda

ijtimoiy tanlangan vositalarning mavjud maqsadlarga erishishda yetarli bo'lmashligi fonida g'ayriqonuniy yo'llarni tanlashga olib kelmoqda [15].

Ijtimoiy institutlar, xususan oila va maktab tizimlari, bu borada yetarli preventiv rolni bajarmayotgani tanqidga sabab bo'lmoqda. Oila instituti o'zining asosiy ijtimoiylashuv funksiyasini zaiflashtirgan – bu ayniqsa ajrashgan oilalarda, migrantlar oilalarida yoki notinch psixososial muhitdagi uy sharoitida yashayotgan o'smirlar orasida yaqqol seziladi. M.O'ralova bu borada maktab institutining ham ko'proq ma'muriy-nazorat funksiyasiga o'tib qolganini, individual yondashuvning deyarli yo'qligini tanqid qiladi. Unga ko'ra, ta'lim tizimi faqat o'quv yuklamasiga emas, balki sotsiopedagogik psixodiagnostik faoliyatga ham urg'u berishi zarur [2].

Shunday qilib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi jamiyatning chuqur sotsiostrukturaviy inqiroz holatini aks ettiradi. Bu hodisa normativ buzulishlarning, ijtimoiy institutlar sinergiyasining zaifligining, turmush tarzidagi fragmentarlikning va individ ijtimoiylashuvining buzuligidan dalolat beradi. Uning ildizlariga qarshi kurashishda esa faqat repressiv yoki yuridik yondashuvlar emas, balki sotsiologik, institutsional va madaniy kontekstlarni hisobga oluvchi tizimli strategiyalar talab etiladi.

Ijtimoiy tuzilmaning barqarorligi, undagi tengsizliklar va ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlar voyaga yetmaganlarning deviant xatti-harakatlarini shakllantiruvchi omillardan biri sifatida chiqadi. Voyaga yetmagan shaxs ijtimoiy pozitsiyasining zaifligi, ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi, iqtisodiy nochorlik, oiladagi beqarorlik, mahalliy jamoalardagi ijtimoiy nazorat mexanizmlarining zaifligi – bularning barchasi jinoyatga moyillikni kuchaytiradi. Jumladan, K.E.Igoshev va G.M.Minkovskiy bu jarayonni huquqbuzarlikka olib keluvchi shaxsiy deformatsiyalarni aniqlash va yo'q qilish orqali izohlaydi [16]. Shu jihatdan, ijtimoiy institutlar – oila, maktab, diniy va madaniy muassasalar – voyaga yetmaganlarning ijtimoiylashuvi va axloqiy shakllanishi uchun tayanch maydon hisoblanadi. Biroq ushbu institutlarning funksional zaiflashuvi, ayniqsa, oilaviy institutda nazorat va tarbiya funksiyalarining sustligi, maktabdagi individual yondashuv yetishmasligi, madaniy institutlarning yetarli ta'sirga ega emasligi deviant xatti-harakatlar rivojiga imkon yaratadi [17].

Ijtimoiy nazorat institutlari tomonidan amalga oshiriladigan “ijtimoiy yordam” va “korrektiv ta'sir” jarayonlari shaxsning axloqiy huquqiy ongini tiklashga va salbiy motivatsiyani ijobiyga o'zgartirishga yo'naltirilgan. Bu esa “kech profilaktika”dan ko'ra “erta profilaktika”ga ko'proq urg'u berilishi kerakligini ko'rsatadi [18].

Bundan tashqari, turmush tarzi – ya'ni insonning kundalik faoliyati, erkin va majburiy vaqtini qanday o'tkazishi – profilaktikaning sotsial bazisi sifatida muhim ahamiyatga ega. Mahallalarda, o'quv muassasalarida, bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil qilish vositalarining yetarli emasligi deviant xatti-harakatlar uchun zamin yaratadi. Aynan turmush tarzini sog'lomlashtirish orqali ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish mumkin bo'ladi. Fuqaro huquqlari va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi normativ huquqiy institutlar ham huquqbuzarlikning oldini olishda markaziy o'rin tutadi. Bu o'rinda jinoyatning muqarrar jazolanishi haqidagi tushunchani voyaga yetmagan ongiga singdirish, ularda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish, hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish zarurligi muhim ahamiyatga ega [19].

Shuningdek, moral va huquqiy profilaktika vositalari ijtimoiylashtirish jarayonida o'zining samaradorligini ko'rsatmoqda. Bunda insonlar orasida axloqiy me'yorlarni ichkilashtirish, jamoaviy axloqiy nazoratni kuchaytirish orqali jinoyatchilikning oldi olinadi. Bu usul ayniqsa voyaga yetmaganlar orasida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda [20].

## XULOSA

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, asosan, ijtimoiy muhitdagi salbiy omillar, ya'ni oilaviy muammolar, moddiy taqchilik, maktabdagi muvaffaqiyatsizliklar, atrof-muhitdagi ijtimoiy adolatsizlik hissi, o'rnak bo'ladigan yetuk shaxslarning yetishmasligi, ommaviy axborot vositalarining salbiy ta'siri bilan bog'liq. Ayniqsa, ota-onaning befarqligi, muhojirlik sababli ota-onalarning uzoq muddat davomida farzandlaridan uzoqda bo'lishi, yoshlar orasida ijtimoiy izolyatsiya va psixologik bosimni kuchaytiradi. Shuningdek, mahalla institutlarining voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi faoliyati ayrim holatlarda faqat shaklan ko'rinishga ega bo'lib, amaliy mazmun kasb etmayapti. Bu holat, o'z navbatida, profilaktik chora-

tadbirlarning samarasizligiga olib kelmoqda. Ayni paytda, sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy tengsizlik, yoshlar orasida bandlik masalasining hal qilinmaganligi ham ularning deviant xatti-harakatlariga zamin yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni oldini olishda ijtimoiy tuzilma, institutlar va turmush tarzining o'zaro aloqador tizim sifatida tahlili asosida harakat qilish, erta profilaktika choralariga urg'u berish va shaxsni ijtimoiy nazoratga jalb etuvchi mexanizmlarni kuchaytirish zarur. Bu esa sotsial profilaktika va resotsializatsiyani tizimli ravishda uyg'unlashtirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish uchun tizimli, kompleks va ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Bunda sotsiologik tahlillar, ijtimoiy omillarni bartaraf etish va huquqiy ongni yuksaltirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish // Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т.1. – №12. – С. 132-134.
2. O'ralova M. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining profilaktikasida umumta'lim maktablarining o'rni // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Т.2. – №5. – В. 119-120.
3. Nimatov Sh.N. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va uning profilaktikasini amalga oshirishda vujudga kelayotgan muammolar // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т.1. – №17. – В. 22-24.
4. Забрянский Г.И. Изучение и предупреждение преступности несовершеннолетних. – Краснодар, 1979. – 112 с.
5. Murodova N. Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda yangicha tizim: inspektor-psixologlarning o'rni // Oriental Renaissance. – 2021. – Т.1. – №11. – В. 1254-1258.
6. Sun, R. & Wang, Y. (2023). The Influence of Family Factors on Juvenile Delinquency. Lecture Notes in Education Psychology and Public Media. – P. 2.
7. Haveripeth, P. D. (2013). Contributing Factors of Juvenile Delinquency. International journal of innovative research and development, 2. – P. 10.
8. Zuraiju, S.N.E.N. & Yahya, V.Y.M. (2012). Factors that contribute to juvenile delinquency. – P. 3.
9. Ya, W. (2014). The Factors affecting the Juvenile Delinquency. – P. 2.
10. Cai, Y. (2024). The Role of Social Media in Influencing Juvenile Delinquent Behavior. Communications in Humanities Research. – P. 4.
11. Prendi, A. (2012). Psychology of Juvenile Delinquency in Albania. Journal of Educational and Social Research, 2, 267.
12. Trinidad, A. (2019). Situational and Opportunity Factors Associated with Juvenile Delinquency. – P. 1.
13. Koryagina, S. (2022). Juvenile Delinquency: a Criminological Screenshot of Modernity. Baikal Research Journal. – P.87.
14. Damar, M., & Solak, Ö. (2024). Women Inmates' Experiences of Juvenile Delinquency. Sylwan. – P.98.
15. Merton R. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968. – С. 215.
16. Игошев К.Е., Миньковский Г.М. Семья, дети, школа. – М., 1989. – С.315.
17. Устинова В.В. Ранняя профилактика преступлений несовершеннолетних. М., 1978. – С.14-15.
18. Аванесов Г.А. Криминология. М., 1984. – С.403.
19. Кудрявцев В.Н. Правовое поведение: норма и патология. – М., 1982. – С.35.; Жалинский А.Э. Специальное предупреждение преступлений в СССР. – Львов, 1976. – С.86.
20. Шляпочников А.С. Вопросы борьбы с преступностью. – М., 1972. – С. 18.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000